

SHEVALAR VA ULARNING AHAMIYATI

O'ZBEKISTON

RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,

FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Andijon Davlat Chet tillari Instituti IFOMTI

fakulteti 101-guruh talabasi Ahmedova Rayyona

Ilmiy maslahatchi : Kabulova Umida

MAQOLA

Annotatsiya: Maqolada shevalarning hududiy turlari, adabiy til bilan bog'liqligi va til rivojida ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, shevalarning madaniy va ilmiy ahamiyati diagram va jadval orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: shevalar, dialekt, adabiy til, tilshunoslik, madaniy meros.

Annotation: The article discusses the regional types of dialects, their relationship with the literary language, and their importance in language development. Additionally, the cultural and scientific significance of dialects is illustrated through diagrams and tables.

Keywords: dialects, regional speech, literary language, linguistics, cultural heritage.

Аннотация: В статье рассматриваются региональные типы диалектов, их связь с литературным языком и значение для развития языка. Культурное и научное значение диалектов представлено с помощью диаграмм и таблиц.

Ключевые слова: диалекты, региональная речь, литературный язык, лингвистика, культурное наследие.

Sheva - bu ma'lum hudud yoki jamiyat vakillari nutqida uchraydigan, adabiy til me'yorlaridan farq qiluvchi til shaklidir. Shevalar xalqning tarixiy va madaniy boyligini aks ettiradi, til rivojida muhim o'rin egallaydi. Har bir hududning talaffuzi, so'z boyligi va grammatik tuzilishi turlicha bo'lib, shevalarning paydo bo'lishiga sabab

bo'radi. Mirzahmedov.M professor bu haqida shunday degan edi: “Shevalar xalq tilining tirik qismi bo'lib, uning tarixiy rivojini saqlab qoladi”

Shevalarning ahamiyati haqida quyidgicha yondashamiz . She'valarning tarixiy ahamiyati - tilning o'tmish bosqichlarini saqlab keladi. Leksik boylik - yangi so'z va iboralar shevalardan adabiy tilga kiradi. Madaniy ahamiyat - hududning urf-odatlar, turmush tarzi shevalarda aks etadi. Ilmiy ahamiyat - tilshunoslar shevalarni o'rganish orqali til taraqqiyotini tahlil qiladi. Adabiy tilni boyitish - shevalar adabiy tilga yangi ifoda vositalarini olib kiradi.

Tilimizdagi asosiy shevalar :			
1	Qarluq shevalari :	Toshkent, Samarqand, Farg'ona kabi hududlarda tarqalgan.	Adabiy tilga eng yaqin.
2	Qipchoq shevalari:	Qoraqalpog'i ston, Sirdaryo, Jizzaxda uchraydi.	Undoshlar qattiq talaffuz qilinadi.
3	O'g'uz shevalari:	Xorazm, Navoiy viloyatlari.	Turkman tiliga yaqin fonetik va leksik xususiyatlari mavjud.

Shevalar tilning faqat talaffuz yoki leksik farqi emas, balki xalq madaniyati, tarixi va ma'naviy merosini saqlovchi boy manbadir. Ularni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish va saqlash til taraqqiyoti va madaniyat rivoji uchun muhimdir.¹ Bu fikrlarni Tojiyev Y. olim ham quyidagicha maqullagandi : “Shevalar ilmiy tadqiqotlarda ham, adabiy ijodda ham tilni boyituvchi vosita sifatida qadrlanadi”

Shevalar va adabiy til farqlari shunday : shevalar adabiy tilga to'liq bo'ysunmaydi. Masalan, “kelayapti” so'zi ayrim hududlarda “kelvotti” yoki “kelvotir” tarzida talaffuz

qilinadi. Shunga qaramay, shevalar nutqning turli ifoda vositalarini saqlab, tilni rang-barang qiladi.

ii Turmush tarziga bog‘liqlik. Ma’lumki, olamning dialektal manzarasi ko‘p jihatdan ma’lum sheva bilan birlashgan jamoaning turmush tarziga, istiqomat qilayotgan hududning jug‘rofiy o‘ziga xosligi, ayrica tabiati bilan ham bevosita bog‘liq.

Ya’ni sheva vakillari uchun kundalik turmushda tez-tez ishlatadigan, murojaat qiladigan narsalar juda muhim, shuning uchun ularni alohida nomlashni ma’qul ko‘radilar. Turmush tarziga bog‘liqlik detalizatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Sheva jamoasining turmush tarzidan kelib chiqib, uning tilida ko‘plab detallashgan nomlar uchraydi.

Masalan chorvachilik rivojlangan Surxondaryo aholisi nutqida chorvachilik, ayniqsa qo‘ychilik bilan bog‘liq ko‘plab detallashgan nomlar mavjud. Hayvonning jinsi, yoshi, nasldorligi, rangi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra alohida-alohida nomlar uchrashi shevashunoslarning ishlarida qayd etilgan.

Masalan, uluqligida tug‘gan echki — chibich,
bir oydan uch oygacha bo‘lgan qo‘zi — barra,
ikki oydan olti oylikkacha bo‘lgan semiz qo‘zi — shirboz,
ikki yoshli, ikki tish yorgan qo‘chqor — shishak,
ayni yetilgan uch yoshli qo‘chqor — dagar,
to‘rt tish yorgan, uch-to‘rt yoshli qo‘chqor — chori,
to‘rt-besh yoshli qo‘chqor — panji,
olti-yetti va undan katta yoshdagi qo‘chqor — monggi,
qo‘zilagan qo‘y — to‘soq,
bo‘yi o‘smay qolgan qo‘zi — go‘mbik,
dumli qo‘y — chibalang
kabi nomlar bilan yuritiladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkin. Shevalar tilning faqat talaffuz yoki leksik farqi emas, balki xalq madaniyati, tarixi va ma’naviy merosini saqllovchi

boy manbadir. Ularni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish va saqlash til taraqqiyoti va madaniyat rivoji uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzahmedov M. O'zbek shevalari va lahjalari. - Toshkent, 2012.
2. Yo'ldoshev B. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2015.
3. Rasulov R. O'zbek shevalari va adabiy til munosabati. - Toshkent, 2014.
4. Tojiyev Y. Dialektologiya asoslari. - Toshkent, 2011.
5. Ismoilov M. O'zbek tili shevalarining lingvistik xususiyatlari. - Toshkent, 2016.
6. Feruza Musayevaning "O'zbek xalq so'zlari" lug'ati .

ⁱ Tojiyev Y. Dialektologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2011.

ⁱⁱ Feruza Musayevaning "O'zbek xalq so'zlari" lug'ati kirish qismidan.